



ERKIN VOHIDOVNING ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIGA TAXMISLARI VA ADABIY TA’SIR

Rohataliyev Abbasjon Mirzahakim o‘g‘li

NamDu o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası o‘qituvchisi

Tel: + 998-99-932-64-34

Annotatsiya: Ushbu maqola shoir Erkin Vohidovning Alisher Navoiy g‘azallariga taxmislari hamda adabiy ta’sir masalasiga bag‘ishlangan. Unda O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning Navoiy g‘azallariga bog‘lagan taxmislari va ularning o‘ziga xos badiiy xususiyatlari an‘ana va novatorlik aspektlarida tadqiq etilgan. Maqolani yozishda struktural va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: adabiy an‘ana, adabiy ta’sir, muxammas, taxmis, tardu aks, tanosub, badiiy obraz, vazn, qofiyam radif.

Adabiyotshunoslikda adabiy aloqa va adabiy ta’sir tushunchalari muayyan asar tahlilini amalga oshirish jarayonida alohida ahamiyatga ega omillardan biri hisoblanadi. Ayni damda biror shoir yoki yozuvchi ijodining adabiy ta’sirdan ayri holda shakllanishini tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki ijodkor qaysi janrda bo‘lmasin, albatta, ustozlar tajribasini adabiy o‘zlashtirish orqali yangi bir asarni yaratishga erishadi. Adabiyotshunoslikka oid manbalarda adabiy ta’sirning ko‘lami va darajasi nuqtai nazaridan umumiy va shaxsiy¹ ko‘rinishlari mavjud ekanligi ta’kidlanadi.

Biz mazkur maqolada g‘azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy ijodining xalqimizning sevimli shoirlaridan biri, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov she’riyatiga ta’siri xususida fikr yuritamiz.

O‘zbek she’riyatida Alisher Navoiydan keyin yashab, qalam tebratgan shoirlar ijodida mutafakkir shoir g‘azal va dostonlarining muayyan darajadagi ta’sirini sezish mumkin. Chunki buyuk shoir lirik merosi milliy til va adabiyotimizning tayanch nuqtasini

¹ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент. Академнашр, 2010. – 16.



tashkil qiladi. Shunday ekan, Erkin Vohidovning XX asr o'zbek she'riyatida mumtoz janrlar va aruz she'r tizimining qayta jonlanishiga ulkan hissa qo'shgan lirik merosi ham bobomiz Alisher Navoiy ijodi ta'siri zamirida vujudga keldi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Biz shoirning “Senga baxtdan taxt tilarman” nomli devoniga kiritilgan g'azal, muxammas, qit'a, mustazod singari o'nga yaqin mumtoz poetik janrlardagi she'rlarini ko'zdan kechirib, ularda Alisher Navoiy ijodining ta'siri ko'proq ekanligiga guvoh bo'ldik.

Alisher Navoiy ijodi Erkin Vohidov she'riyatida adabiy an'ana, badiiy obrazlar tizimi, vazn xususiyatlari, janrlar rang-barangligida katta ta'sir kuchiga ega ekanligi yaqqol seziladi. Buni biz devonga debocha – ochqich vazifasini o'tagan g'azalning ilk baytlari mazmunidanoq anglab olamiz:

Istadim sayr aylamoqni

Men g'azal bo'stonida,

Kulmangiz, ne bor senga deb

Mir Alisher yonida².

Ushbu bayt bir tomondan shoir ijodida yangi janrga qo'l urilganligini anglatayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan uning Navoiy she'riyatidan bahramandligi va undan rang olganligining nishonasi sifatida bo'y ko'rsatmoqda. Bunda Erkin Vohidovning lirik she'riyat janri sanalgan g'azal yozishdagi an'anasi namoyon bo'ladi.

Bilamizki, Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidan shoirning muxammas janriga mansub o'nta taxmis muxammas³i o'rin olgan. Bularning uchasi “Malik ul-kalom” Lutfiyga, qolgan 7 tasi esa shoirning o'z g'azallari asosida yaratilganligi bilan xarakterlanadi⁴. Taxmis genezesi va ilmiy-nazariy asoslari haqida tadqiqot olib borgan adabiyotshunos T. Ro'ziboyev Navoiyning o'z g'azallariga bitgan o'n taxmisiga qo'shimcha tarzda Husayniy qalamiga mansub bir g'azalga ham taxmis bog'laganligi

² Воҳидов Э. Девон (сенга бахтдан тахт тиларман). – Т.: Ф.Фулум номидаги матбаа ижодий уйи.2017.– Б. 6.

³ Bu haqda qarang: Рўзібоев Т. Тахмис: генезис, тадриж ва поетика. Монография. – Тошкент: BOOKMANY PRINT, 2022. – Б 15.

⁴ Sirojiddinov Sh va boshqalar. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent. Tamaddun. 2018., – B. 304.



haqida ma’lumot beradi⁵. Demak, keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar Alisher Navoiy muxammaslari sonining o’n bitta ekanligidan xabar bermoqda.

Erkin Vohidov devonida ham 11 ta muxammas mavjud bo‘lib, shundan to‘rttasini Navoiyning “Har qachonkim kemaga ul oy safar rahtin solur”, “To muhabbat dashti bepoyonida ovoramen” matla’li hamda “Aylagach” va “Bo‘lubtur” radifli g‘azallariga bog‘langan taxmis muxammaslar tashkil etadi. Erkin Vohidov taxmislarining xarakterli jihati shundaki, ularda Navoiy g‘azallaridagi vazn va qofiya singari shakliy xususiyatlar bilan birga taxmis uchun eng muhim xususiyat bo‘lgan poetik ruh, lirik pafos hamda estetik-ideal to‘la saqlanishiga erishilgan.

Adabiyotshunos Shahnoza Rahmonova “Erkin Vohidovning Navoiyga bog‘langan taxmisi”⁶ sarlavhali maqolasida shoirning Navoiyga bog‘langan taxmislari sonini uchta deb keltiriladi va ularning har birini alohida tahlilga tortadi. Kuzatishlarimiz natijasida yuqorida ta’kidlanganidek, Erkin Vohidov Navoiyning uchta emas, balki to‘rt g‘azaliga taxmis bog‘laganiga guvoh bo‘ldik. Maqola muallifi Erkin Vohidov tomonidan Alisher Navoiyning “Ko‘zing ne qaro balo bo‘libtur” matla’si bilan boshlanadigan g‘azaliga bog‘langan taxmisi haqida to‘xtalmaydi. Erkin Vohidovning mazkur taxmisi 1997-yilda yozilgan va “Senga baxtdan taxt tilarman” devoniga kiritilgan bo‘lib, yetti bandni tashkil qiladi. Biz quyida mazkur taxmis-muxammasni tahlilga tortish bilan Erkin Vohidov ijodiga xos an’anaviylik va novatorlik belgilarining qabariq nuqtalarini ko‘rib chiqamiz.

Ishqing menga to jafu bo‘lubtur,

Ko‘nglimga jafu safo bo‘lubtur,

Qoshing, ne jazoki, yo bo‘lubtur,

Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur,

Kim jonga qaro balo bo‘lubtur⁷.

– – V// V – V – // V – –

⁵ Ko‘rsatilgan asar. – B. 40.

⁶ Rahmonova Sh. “Erkin Vohidovning Navoiyga bog‘langan taxmisi”. “Erkin Vohidovning so‘z qo‘llash mahorati” mavzusidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Guliston. 2020. – B. 561.

⁷ Воҳидов Э. Девон (сенга бахтдан тахт тиларман). – Т.: Ф.Фулум номидаги матбаа ижодий уйи.2017.– Б.169.



Keltirilgan iqtibosda ajratib ko'rsatilgan misralar Alisher Navoiyning “G'aroyib us-sig'ar” devonidagi 161-g'azalning birinchi bayti sanaladi. Navoiyning ushbu g'azali 7 baytdan iborat bo'lib, aruzning hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maf-uv-lu//mafo-i-lun//fa-uv-lun) vaznida bitilgan. Mazkur baytga Erkin Vohidov tomonidan bog'langan taxmis vazni va qofiyasi ham, ma'no va mazmuni ham g'azalga monand shakllantirilgan. Shuningdek, “bo'lubtur” radifidan avval kelayotgan “qaro va balo” so'zlaridagi “o” unlisi mujarrad qofiya turini vujudga keltirgan. Biroq taxmis bandlari bilan g'azal baytlarining miqdori va tartibi teng emas. Ya'ni taxmisning birinchi bandi g'azalning birinchi baytiga, ikkinchi bandi ikkinchi baytiga, uchinchi bandi uchinchi baytiga, to'rtinchi bandi to'rtinchi baytiga va beshinchi bandi 7-baytiga – g'azal maqta'siga taxmis sifatida bog'lanadi. G'azalning quyidagi 5-6-baytlariga muxammas bog'lanmay ochiq qolgan.

To qildi yuzung navosi jonim,

Yuz sori anga have bo'lubtur.

Boqiy topar ulki, bo'ldi foniy,

Rahravga baqo fano bo'lubtur⁸.

Alisher Navoiyning ushbu g'azali o'ziga xos tarixga ega bo'lib, professor Olimjon Davlatov “g'azalning matla'i aslida Mirzobek ismli yigitga tegishli bo'lgan”⁹ligi, muallif “Majolis un-nafois”da bu haqda ma'lumot berganligini ta'kidlaydi.

Garchi taxmis bandlari g'azal baytlariga miqdor jihatdan teng kelmagan bo'lsa-da, g'azalning badiiy qiymatiga putur yetmagan. Aksincha, g'azal yangi ohang va shakl bilan boyiganligini ko'rish mumkin. Bu esa o'z navbatida Erkin Vohidovning taxmis yaratishdagi mahorati va yuksak mas'uliyatidan darak beradi. Chunki taxmis muallifdan g'azalni mazmunan boyitishdan ko'ra unga mos mazmun va shaklda javob yozishni taqozo qiladi. Alisher Navoiy g'azali matla'i **“balo qaro – qaro balo”** shaklidagi tardu aks san'ati asosiga qurilgan bo'lsa, Erkin Vohidov ta'zod san'atidan o'rinli foydalanish orqali jafu va safo so'zlarini mazmunan zidlash orqali ta'sirchan misralar bilan taxmis

⁸ Алишер Навоий. 20 томлик Мукаммал асарлар тўплами. 3-том. Тошкент. Фан. 1988. – Б. 143.

⁹ Bu haqda qarang: Давлатов О. Маънолар хазинаси. 3-китоб. – Тошкент. Тамадун. 2021. – Б. 285-286.



hosil qilishga erishadi. Ushbu taxmisning yana bir e'tiborga molik jihati shundaki, unda shoir g'azaldagi zulqofiyataynlik xususiyatini ham beshlantirish jarayonida saqalab qoladi. Shundan kelib chiqib, taxmisning birinchi bandi qofiya tizimini hosil qilgan **jafu, safo, yo; balo < > qaro, qaro < > balo** tarzida zidlangan birliklar mazmunini quyidagicha istifoda etish mumkin: Qachonki mashuqaning ishqidan yetgan jafolar oshiqning ko'ngliga safo bahsh etadi, uni ishqning alangasi harorati bilan illatlardan tozalab, poklaydi. Yorning kamon qoshlari esa jafokash oshiq joniga jazo bo'lib yo'nalgan. Shu o'rinda taxmis muallifi asos g'azal mazmuniga hamohang bo'lgan tanosub san'atiga murojaat qilib, bandning estetik ta'sirini oshirishga erishadi.

Taxmisning to'rtinchi bandida oshiqning xohish-u istaklariga qarshi o'laroq yuzaga chiqayotgan ayriliq motivini g'azalning to'rtinchi bayti mazmuniga parallel qo'yadi. Bu esa bandning quyidagi holatda shakllanishiga sabab bo'ladi:

Tun-kun tiladim visol Xudodin,
Hijronni yubordi ul samodin,
Yor yuz o'giribdi men fidodin,
Begona bo'lubtur oshnodin,
Begonaga oshno bo'lubtur.

Ushbu bandning avvalgi va keyingi bandlardan farqi qofiyadan so'ng radif qo'llanmagani holda bandning umumiy ta'sir kuchi tazod va tardi aks san'atlarini o'rinli qo'llash bilan jafokash oshiq obrazining badiiy qiyofasini aks ettiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Erkin Vohidovning shoir sifatida shakllanishida Alisher Navoiy ijodining ta'siri yuqori darajada muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, shoir taxmislari muxammas janrining poetik qiyofasiga zamonaviy ruh berdi. Shoir salaflar ijodiga hurmat, ortiqcha qochirim va madhiyabozlikdan tiyilish, badiiylik mezonlariga bo'ysunish kabi xususiyatlarini har bir taxmis va muxammasida saqlab qola bildi. Bu esa shoirning individual mahorat qirralaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 143.
2. Воҳидов Э. Девон (Сенга бахтдан тахт тиларман). – Т.: Ғ. Ғулом номидаги матбаа ижодий уйи. 2017. – Б.169.
3. Давлатов О. Маънолар хазинаси. 3-китоб. – Тошкент. Тамаддун. 2021. – Б. 285-286.
4. Rahmonova Sh. “Erkin Vohidovning Navoiyga bog‘lagan taxmisi”. “Erkin Vohidovning so‘z qo‘llash mahorati” mavzusidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Guliston. 2020. – B. 561.
5. Рўзибоев Т. Тахмис: генезис, тадриж ва поэтика. Монография. – Тошкент: BOOKMANY PRINT, 2022. – Б 15.
6. Sirojiddinov Sh va boshqalar. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent. Tamaddun. 2018., – B. 304.
7. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент. Академнашр, 2010. – 16.